

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA MAQOLLARNING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI

Cho'qmarova Sevinch Panji qizi

TerDU talabasi

+998915970125, sevinchraximova789@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida frazeologik birliklarning bir tildan ikkinchi tilga o'girish muammosi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: frazeologizmlar, maqollar, mustaqil leksema, frazeologik chatishmalar, frazeologik birliklar.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya alohida o'ringa ega. Bugungi kunda bu sohaga oid ko'plab ilmiy ishlar qilinmoqda. Frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir. Frazeologik birlik nutqqa daxldor bo'lgan birlik bo'lib birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishidagi birikuvidan tashkil topgan obrazli ma'noviy birlik sanaladi.

Frazeologik birliklar tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Frazeologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq: birinchidan, bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funksiyalarni bajaradi, ikkinchidan, bunday so'zlar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib keladi.

Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning umumiy tilshunoslik miqyosida e'tirof etilgan tasnifga ko'ra frazeologizmlar 3 ta guruhga bo'linadi.:

1. Frazeologik chatishmalar: bunday birikmalarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi. Masalan,

The best of both worlds- bir o'q bilan ikkita quyonni urmoq.

Ko'rinib turibdiki, asl iboradagi so'zlarning tarjima ma'nosida uning eng mos ekvivalenti berilgan. Ingliz tilidagi idiomalarni o'zbek tiliga tarjima qilganda uni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilinmaydi, balki unga mos ekvivalent topiladi, yoki bitta so'z bilan uning ma'nosi ochib beriladi. Quyidagi iboralar ham tasnifning ushbu guruhiga mansub bo'la oladi:

Speak of the devil- bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinadi;

Once a blue moon- qarg'a qarg' etganda;

Let the cat out of the bag- qovun tushirdi;

2. Frazeologik birlikmalar: bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga ega, ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'ladi. Masalan,

To cost arm and a leg- narxi osmonda.

Ingliz tilidagi ushbu iborada “cost-narxlamok” soʻzi, oʻzbek tiliga tarjima qilganda ham oʻz maʼnosini saqlab qolgan. Quyidagi iboralar ham tasnifning ushbu guruhiga mansub boʻla oladi:

Give us a second- bir pas kutib turing;

A piece of cake- xamirdan qil sugʻirgandek;

To kill two birds with one stone- bir oʻq bilan ikkita quyonni urmoq.

3. Frazologik birliklar: bularda tarkibidagi soʻzlarning maʼlum bir qismigina koʻchma maʼnoga ega, birikmaning maʼnosi tarkibidagi soʻzlarga bogʻliq. Bular asosan ot bilan feʼlning birikuvi boʻlib, feʼl koʻchma maʼnoda, ot toʻgʻri maʼnoda keladi. Masalan,

Have a party- bazm uyushtirmoq.

Bu birikma soʻzma-soʻz tarjima qilinganda "bazm bor" maʼnosini beradi, ammo ingliz tilida bu birikma tarkibi tarjima qilinmaydi va u shunchaki, "bazm uyushtirmoq" maʼnosini anglatadi. Quyidagi birliklar tasnifning ushbu guruhiga mansub boʻla oladi;

Have a good time- yaxshi vaqt oʻtqazmoq;

Do your best- bor kuchini ishga solmoq ;

Make a appointment- uchrashuv belgilamoq;

Get better- kasallikdan tuzalmoq;

Koʻplab ingliz idiomalari kelib chiqishi badiiy asarlardan olinadi. Misol uchun Uliyam Shekspirning bir nechta idiomalarini koʻrib chiqamiz:

Cakes and ale - pirojniye pivo - tashvishsiz hayot

That's got him- qilmish- qidirmish

To have go- sinab koʻrmoq

Shekspirdan tashqari Jeffri Choser, Edmond Spenser, Volter Skott, Tomas Braun va h.k Oʻzbek olimlaridan ham A.Mamatov va H.Jamolxonov va boshqalar frazeologik birliklarning tarkibini oʻrganishgan.

Frazeologizmlarda ham leksemalarda boʻlgani kabi, sinonimlik, antonimlik, omonimlik xususiyatlar bor. Masalan: ogʻzi qulogʻida va boshi osmonga yetdi iboralari quvonch va xursandchilik maʼnosida oʻzaro sinonim boʻlsa, koʻkka koʻtarmoq va yer bilan bitta qilmoq iboralari antonimdir. Ushbu xususiyatlar ingliz idiomalarida ham mavjud:

To get the bit between one's teeth - oʻzini tuta olmaslik

To take the bit between one's teeth - oʻzidan ketmoq

To nip in the bud - ildizini quritmoq

To check in the bud- ildizini quritmoq

Bu idiomalar oʻzaro sinonimdir.

Maqollar ham nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Soʻzma -soʻz tarjima qilinadi agarda tarjima qilinayotgan tilda uning ekvivalenti boʻlsa ekvivalenti qoʻllaniladi. Masalan, ingliz tilidan oʻzbek tiliga soʻzma -soʻz tarjima qilsak:

No pains- no gains -ogʻriq yoʻq, yutuq yoʻq

After rain comes sunshine- yomgʻirdan soʻng quyosh chiqadi.

A word of spoken is past recalling- aytilgan soʻz otilgan oʻq.

A bird may be known by its song- qushning qandayligini uning sayrashidan bilsa boʻladi.

Quyidagi maqollar esa ingliz tilidagi maqollarning oʻzbek tilidagi ekvivalenti:

A friend in need is a friend indeed-doʻst kulfatda sinaladi.

As you brew, so you must drink- nimani eksang, shuni oʻrasan.

After death the doctor- urushdan keyin qahramon koʻpayadi.

Xulosa oʻrnida har bir til frazeologizmlar va maqollar bilan rang-barang va boydir. Ularni kundalik hayotda qoʻllash nutqimizni yanada chiroyli va ravon qiladi. Yuqorida koʻrib chiqilgan frazeologik birliklarning tahlilidan shunday deyish mumkinki, frazeologiya tilshunoslikning bir boʻlimi sifatida emas, balki mustaqil fan sifatida oʻrganilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allayorova R. Tarjima nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2008
2. Wisdom, electronic dictionary app version: 3.2.4
3. Mamatov. A. . Anotomiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // Oʻzbek tili va adabiyoti Oʻz. FAN., T., 2019
4. Johnathan Swift. Polite Conversation. M., 2005
5. Ginsburg R. S. A Course in Modern English Lexicology M., 1979
6. Mirzayev. M., Usmonov. S., Oʻzbek tili . T., -- Oʻqituvchi 1978
7. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. *JournalNX*, 40-43.
8. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story "A Christmas Carol" by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
9. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 73-76.
10. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. *Interpretation and Researches*, (8(30)). ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>

11. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.
12. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.
13. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.
14. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.
15. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-va-ingliz-frazeologiyasi-tahlili>